ABDULLA ORIPOVNING "JANNATGA YO'L" ASARIDAGI AXLOQIY QARASHLAR

Mahmudova Nargiza Xolmirza qizi, *Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish (O'zbek tili) yo'nalishi talabasi*

Ilmiy rahbar: Eshimova Zarnigor, *IPU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek shoiri Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" asari va unda aks etgan yaxshi va yomon, savob-u gunoh, ezgulik va halollik, sabr toqat, eng muhimi ota- onaga va dost-u yorga bo'lgan mehr oqibat kabi tushunchalar muallif tomonidan kitobxonga tezroq va yaxshi tushunishi uchun yorqin ochib berilgan. Har bir Inson asarni o'qish davomida o'ziga kerakli bo'lgan xulosalarni oladi va yomon odatlarini yo'qotishga harakat qiladi. Bu asar nafaqat bizni balki, kelajak avlodning tarbiyasi uchun muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: Jahon adabiyoti, O'zbek adabiyoti, axloqiy g'oyalar, jannat, do'zax, arosat.

Annotation. This article discusses the work "The Road to Paradise" by the Uzbek poet Abdulla Oripov and the concepts reflected in it, such as good and evil, virtue and sin, kindness and honesty, patience, conscience, and most importantly, love and respect for parents and friends. These ideas are clearly and vividly explained by the author so that the reader can easily understand them. While reading the work, every person draws important conclusions for themselves and tries to get rid of bad habits. This work plays an important role not only in our upbringing but also in the education of future generations.

Keywords: World literature, Uzbek literature, moral ideas, paradise, hell, purgatory.

Abdulla Oripov 1941-yilning 21 martida Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida tug'ildi. Uning bolaligi qishloqdagi boshqa tengdoshlariniki qatori

o‘tdi. Otasi Orifboy Ubaydulla og‘li ishbilarmon dehqonlardan edi, onasi Turdixol momo ko‘pchilik o‘zbek ayollari singari sarishta ayol edi. Shoirning birinchi to‘plami “Mitti yulduz” (1965-yida) chop etigan. Undan so‘ng adibning: “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1967) “Onajon” (1969) “Ruhim” (1971) “O‘zbekiston” “Qasida” (1972) “Hayrat” (1979) “Hakim va ajal”(1980) “Saylanma” (1996) “Sohibqiron” (1996) “Haj daftari”(1992) “Yillar armoni”(1983) singari qator kitoblari bosilib chiqqan. Abdulla Oripov 2016-yil 5-noyabr kuni AQSHning Xyuston shahrida 75 yoshida vafot etdi.

Tadqiqot metodologiyasi

psixologik tahlil metodi; tasavvufiy-estetik yondashuv; qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Axloq mavzusi adabiyotda insonni yetuk kamolotga olib chiquvchi hamda ibrat olsa bo‘ladigan muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” asarida, ayniqsa, bu mavzu yorqin bo‘yoqlarda tasvirlangan. Inson yaxshi va yomonni, oq-u qorani, savob va gunohni, jannat va do‘zax o‘rtasidagi mashaqqatlarni, jannatga kirish qanchalik qiyin va mushkul ish ekanligini, eng avvalo, farzandning ota-onasi oldidagi burchlari haqida aniq va ravshan yoritib berilganini ko‘ramiz.

Natijalar va muhokama

Insoniyat dunyoga kelibdiki, har bir inson faqatgina bolasi uchun yashaydi. Farzandini hayotini o‘ylab, hatto u uchun jonini berishga ham tayyor bo‘ladi. Uni yoshligidan oq yuvib, oq taraydi. Kiymay kiydiradi, yemay yediradi, uning joni og‘rib yotib qolsa, u uchun qayg‘uradi. Ammo, farzandlar ota-ona g‘animatligini ularni borida qadriga yetish kerakliligini, vafot etgandan so‘ng kech bo‘lishini, afsuski, bilishmaydi. Hozirda biz televideniye orqali ota-onalarni qariligida farzandlari tomonidan xo‘rlanishlari va qariyalar uyida eltib tashlanish holatlarini juda ko‘p guvohi bo‘lyapmiz. “Jannatga yo‘l” da ota-onaning farzandlari tomonidan qadrlanishi mehrli bo‘lishi kerakliligi haqida ijobiy va salbiy tomonlarini o‘rganishimiz mumkin.

Quyidagi satrlarda e'tibor qarating. O'zga odam: Tarozibon ne desa shu, ishonamiz-da! Qaysi kuni yig'lab ketti bir mo'ysafid chol Yetti bora xaj savobi bo'lmabdi qabul. Yigit: Nechuk endi! O'zga odam: U dunyodan yuz berib qay xol, Otasini sansiragan ekan bir bor ul. Hadislarda ham ularni duosini olish, hamda ularga mehribon bo'lishimiz kerakliligi haqida bir qator ma'lumotlar berib o'tilgan. Masalan, Imom al-Buxoriy ham o'z hadislarida ota-onani hurmatini joyida qo'yishlik kerakliligi haqida so'z yuritadi. Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qiladi: "Bir odam Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning huzuriga kelib: "Yo Rasulullоh, mening yaxshi muomila qilmog'imga kim haqliroqdir?"-deb so'radi. Janob Rasulullоh: "Onang!"-deb aytdilar. U: "Yana kim?"-deb so'radi. Janob Rasulullоh: "Onang!"-dedilar. U: "Yana kim"-dedi. Janob Rasulullоh: "Onang!"-dedilar. U: "Yana kim?"-dedi. Janob Rasulullоh: (bu safar): "Otang!"-deb javob qildilar. Bunday ibratli hadislarni biz faqatgina Imom al-Buxoriy ijodida emas, balki turli xil muhaddis olimlarimizda ham ko'rishimiz mumkin. Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasulullоh sollollahu alayhi vasallam: "Kimki Allah taolo umrini uzoq, rizqini ziyoda qilishni xohlasa, ota onasiga yaxshilik qilsin, qarindoshlik aloqalarini bog'lasin" dedilar. (Imom Bayhaqiy rivoyati). Shundan ko'rishimiz mumkinki, ota-onani rozi qilish va ularni duosida bo'lish, biz uchun sharafli burchdir. Har qanday holatda ularni boricha qabul qilishimiz, jahlimiz chiqib turganda ham, ularga hurmat bilan javob qaytarishimiz lozim. "Jannatga yo'l" asarida shoir yigitning ota-onasi bolasiga shu darajada mehribon bo'ladiki, hatto ota o'z o'g'liga oxiratda ikki paysa savobini berishga ham rozi bo'ladi. Ota: Xo'sh bu yog'i ne kechadi!

Yigit: Do'zax, nadomat, Lekin sira andux chekmang men uchun dada, Qiynoqlarni ko'p ko'rganman avval ham, Faqat alam qilar ikki paysa yetmay qolgani. Ota: Yetim qoldim yoshligimdanda men ham otamdan, Odamlarning eshigida sanqidim itday. Xatto do'zax yonar edi men chekkan g'amdan. Lekin shayton yo'rig'iga yurmadim qitday. Urushlarda bo'ldim qancha, o'lmagan jonim, Peshonamga yozgan ekan farzand, oila. Sizlarni deb butun umr oqardi qonim. Foniy umrim yashab o'tdim tashvishlar ila,

Iymonimni butun qilib Olloh serkaram. Menga jannat darvozasin ko‘rsatdi shukur, Ox uchma-uch kelgan ekan savoblarim ham, Lekin senga ikki paysa beraman. Yigit: Xech bir. Yetti qavat yer qariga tiqsa ham tangri. Men dadamni jannatdan xech qilmasman judo, Kechir meni, dadajonim, bois safarim. Vasling uchun kelgan edim xayr, alvido! “Jannatga yo‘l” asari Dantening “Ilohiy komediya” asariga ham qisman o‘xshash bo‘lib, unda ham bosh qahramon xuddi shoir yigit kabi arosatda qolib, bir muddat sarson sargandonlikda yurishi tasvirlanadi. Baribir oxirida bu ikkala qahramon ham Alloh tomonidan mukofotlanadi, ya’ni ularga jannatga kirish uchun imkon beriladi. Hayotimizda har tarafga qaramaylik, tovlamachilik, ikki yuzlamachilik, sotqinlik, ig‘vogarlik kabi bir qator muammolarga duch kelamiz. Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” asari shu mavzuda yoritilgan bo‘lib, voqealar rivoji narigi dunyodagi savob va gunohlarni o‘lchaydigan tarozibon, Danteda esa Minos qarshisida boshlanadi. Dante o‘z asarini she’riy tarzda yozgan bo‘lsa, Abdulla Oripov esa rivoyat usulini tanlaydi. Lekin, mazmuni va mohiyati o‘zgarmaydi. Maqsad insonni ezgulikka chorlash yomon ishlardan uzoqlashtirib, savob amallarga yetaklash hisoblanadi. Dante va shoir yigit nimaga arosatda qoldilar? To‘g‘ri ular xato ish qildilar. Lekin Hazrati insonning yaxshiligi, sof dilligini va Dantening Biatrechiga bo‘lgan sof muhabbati yolg‘on emas edi.

Yigitning eng katta aybi insonlarni o‘zidek bilgani edi. Insonlar unga qanchalik yomonlik qilmasin ularni buyukligiga ishonardi va ularga xizmat qilardi. So‘nggi damida esa barcha savoblarini do‘stiga bermoqchi bo‘ladi. Lekin u savoblarini do‘sti qabul qilmaydi. Bu ikki asarda do‘stlik timsollari juda chiroyli tasvirlanadi. Hatto oxiratda bir-birlariga savoblarini berishgacha borishadi. “Jannatga yo‘l”da shoir yigit do‘sti bilan jannatga kiradi. [Danteda ham Beatrechi bilan jannatga kiradi] Asarning yana bir o‘xshashlik tomoni shundaki, “Ilohiy komediya” da Dante ustozi Vergeliy yordamida jannatga yetishish uchun jahannamning 9 doirasidan o‘tadi. “Jannatda yo‘l”da esa, shoir yigit Allohning yordami bilan butun yaqinlari va do‘zaxning qiyinchiliklari-yu, u yerdagi og‘ir musibatlarni boshidan o‘tkazadi. Ularning ikkalasi ham jannatga yetishish

maqsadida sarson-sargardonlikda bir muddat qiynalishadi. “Sabrning tagi sariq oltin”deyishganidek, sabrli inson oxirida go‘zal sabri uchun parvardigor tomonidan mukofotlanadi. Shuni aytish joizki, Dante va shoir yigit ham shuncha qiyinchiliklardan o‘tishmasin, ular osonlikcha taslim bo‘lishmadi va sabrlari tufayli Alloh ularni jannati bilan siyladi. Asarlarda tangrining qahriga eng birinchi uchraydigan insonlar hayotligida savob-u, gunoh ishga qo‘l urmagan va o‘zlarini quruqlikka tortgan tuban kimsalar jazolanadi. Ular arosatda qoladilar. “Jannatga yo‘l” asarida bir odam vafot etganida tarozibonga qarab: Mening so‘nggi arzim shuki, nahot mening shuncha savoblarim bekor ketsa deydi. Tarozibon:” Gapni cho‘zma sen arosatda qolasan, chunki sen tirikligingda na savob, na gunoh ishga qo‘l urgansan”,- deya javob beradi. “Ilohiy komediya” da esa, Ustoz dediki: “Bir qavun bordir, bilar u na savob, na gunohga qo‘l urgan, na shuhrat, na or, na nomus. Shunday yashab o‘tgan dunyodan yuzsiz “, - deya keltirilgan. Asar oxirida gunohlar og‘irlashib boradi. So‘nggida esa ig‘vogarlar va insonlarni orasini buzuvchilar jazolanadi. “Jannatga yo‘l” dagi ig‘vogar obrazi esa odam qolmaganidan o‘z ota-onasiga yolg‘on ishlatib orasini buzadi. Natijada ular yolg‘onga ishonib bir-birlarini zaharlab o‘ldirishadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ikki buyuk ijodkor- Abdulla Oripov va Dante o‘z asarlarida insonlarni yaxshilikka, ezgulikka chorlaydi. Xunuk va yomon illatlardan yiroqda bo‘lishlari haqida asarda ham bir qator misollar orqali tushuntirib o‘tishga harakat qilgan. Hatto ota-onani hurmat qilish, vaqtida ularga yordam berish, mehribon bo‘lishlik tasvirlangan. Jannat va do‘zax o‘rtasidagi mashaqqatlar va arosatda qolib qiyin to‘siqlarga duch kelish, va ulardan muvaffaqqiyatli o‘tish asarda Dante va shoir yigit tomonidan insonlarga chiroyli tortiq qilingan. “Ilohiy komediya” va “Jannatga yo‘l” asarlarlarini o‘qish bizga mana shunday axloqiy manan yetuk inson bo‘lishimiz, yomonlikka yomonlik bilan emas, aksincha yaxshilik bilan javob qaytarishimiz kerakliligini uqtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Oripov tanlangan asarlar 3-jild Toshkent 2001
2. A.Oripov “Jannatga yo‘l” Toshkent 1980
3. Solijonov Y Nutq va uslub Toshkent cho‘lpon nashiryoti 2002
4. Tabaev. H Nasr va uslub Toshkent: fan 1922
5. Qo‘shjonov M Saylanma Toshkent 1982
6. Ahmedov. S “adabiyot darsligi” Toshkent 2020